



KORRUPSIYANI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Agaliyeva X.N.

Islom Karimov nomidagi

toshkent davlat texnika universiteti

huzuridagi pedagog kadrlarni malakasini

oshirish va ularni qayta tayyorlash

tarmoq markazi "Ta'lim texnologiyalari"

kafedrası v.b. dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15708943>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-Iyun 2025 yil

Ma'qullandi: 14-Iyun 2025 yil

Nashr qilindi: 21-Iyun 2025 yil

KEYWORDS

коррупция, меъёрӣ, ҳуқуқӣ,
сиёсий партиялар,
ташкilotлар, жамият,
оммавий ахборот
воситалари, терроризм,
демократия, стратегия,
конвенсия, халқаро
стандартлар

ABSTRACT

O'zbekiston Respublikasida "Korrupsiyaga qarshi kurash" bo'yicha olib borilayotgan islohotlar hamda amalda jamiyatni korrupsiyadan xoli etish yo'llari va ularning sistematik tarzda amalga oshirilishini ta'minlash davlatimiz tomonidan beliglangan me'yoriy hujjatlardagi holatlar aynan ta'lim muassasalarini faoliyatiga ta'sirini kamaytirish yo'llari va belgilangan me'yoriy hujjatlar asosida tatbiq etish.

Avvalombor davlatimiz rahbari Prezidenti Sh.Mirziyoyev o'z chiqishlarida "Korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga murosasiz bo'lish kundalik hayot tarzimizga aylanishi shart. Bu illatga qarshi kurashishga barcha davlat organlari, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, umuman, har bir fuqaro safarbar etilishi zarur" deya ta'kidladilar. Korrupsiya haqida gapirar ekanmiz biz bitta jihatiga nazar tashlaymiz rivojlangan davlatlarda ham korrupsiya bilan kurashish asrlar davomida davom etib kelmoqda, har qanday chora-tadbirlar ham bu illatni tubdan yo'qotishga qisman yordam bermoqda. Yurtimizda ko'rilayotgan antikorrupsion chora-tadbirlar va islohotlar yaqqol misol bo'la oladi. Shuningdek Hozirgi kunda jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illat korrupsiyaning demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazib, inson huquqlari buzilishiga olib kelishi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qilishi, hayot sifatini yomonlashtirishi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalarning ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib berishi hamda bu illatni bartaraf etish bo'yicha jahon hamjamiyati tomonidan bir qator samarali ishlar amalga oshirilayotganini ham ta'kidlab o'tish kerak. Korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasi va amaliyotini, korrupsiyaga qarshi diplomatiya va korrupsiyaga toqatsizlik madaniyatini rivojlantirish sohasidagi xalqaro standartlarni targ'ib qilish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, barchamiz oliy maqsad yo'lida harakat qilishimiz shart.

Korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga

xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim e

t Yurtimizda “Korrupsiyaga qarshi” kurash yuzasidan olib borilayotgan islohotlardan biri BMTning 2003 yil 31 oktyabrdagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish” Konvensiyasini O‘zbekiston 2008-yil 7-iyulda qabul qilgan. BMTning Korrupsiyaga qarshi kurashish” Konvensiyasida korrupsiyaga quyidagicha ta’rif berilgan. “Korrupsiya – bu jamiyatni turli yo‘llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. U demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to‘sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi”.

t Ushbu davrda olib borilayotgan islohotlar albatta Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti Korrupsiyaga qarshi kurashish tarmog‘ining Istanbul harakat dasturiga, O‘zbekiston 2010 yilda qo‘shildi. Iqtisodiy barqarorlikdagi birinchi

r 2017 yil 3 yanvarda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun 34 moddadan iborat bo‘lib, hujjatda korrupsiya atamasiga ta’rifdan tortib, unga qarshi kurashish, vakolatli organlar va ularning vazifalari, korrupsiyaga qarshi javobgarlik, bu masalada xalqaro hamkorlik kabi barcha muhim jihatlar qayd etilgan. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni, 3-moddasida Korrupsiya atamasi haqida so‘z yuritilgan. Lotincha “corruptio” so‘zidan olingan bo‘lib, “emirilish”, “buzilish” degan ma’nomlarni anglatadi. Korrupsiya so‘zining ijtimoiy ko‘rinishi «hokimiyatni buzish, chiritish orqali sotib olish» degan ma’noni beradi.

r Korrupsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish.

d Birinchidan, korrupsiya, eng avvalo, uyushgan jinoiy tuzilmalarga madadkor bo‘lish yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri yordam berish uchun davlat xizmatining imkoniyatlaridan foydalanishdir.

Ikkinchidan, korrupsiya jamiyatda xavfsizlik va barqarorlikka to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahdid tug‘diradigan, davlatning konstitutsiyaviy asoslariga putur yetkazadigan, fuqarolar huquqlari va erkinliklarining jiddiy buzilishlariga olib keladigan illat.

Maishiy korrupsiya - bu davlat xizmatlarini ko‘rsatish sohasida fuqarolar va davlat xizmatchilari o‘rtasida vujudga keladigan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik.

Biznesdagi korrupsiya -tadbirkorlar va davlat xizmatchilari o‘rtasida vujudga keladigan munosabatlardagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar.

Hokimiyatdagi korrupsiya - bu davlat hokimiyat organlarida mansabdor shaxslar tomonidan sodir qilinadigan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik.

Inson huquq va erkinlari kafolatlarini izdan chiqaradi;

Jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni yuzaga keltiradi;

Aholining, xalqning olib borilayotgan islohotlarga bo‘lgan ishonchini yo‘qotadi;

Ijtimoiy munosabatlarda adolatsizlikni vujudga keltiradi;

Aholi o‘rtasida turli xil noroziliklarni keltirib chiqaradi;

Davlat organlarining barqarorligini izdan chiqaradi va boshqalar.

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasizlik madaniyatini shakllantirish bo'yicha vazifalar:

Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish;

Jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

Davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish;

Ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya;

Jamoatchilik nazoratini faollashtirish;

Ochiqlik va oshkoralikni ta'minlash;

Korrupsiya uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash.

Korrupsiyaga qarshi muhim chora-tadbirlar sifatida yurtimizda olib borilayotgan islohotlar.

1.Ochiqlik va hisobdorlik;

2."Halollik vaksinasi" tamoyili asosidagi ta'lim;

3.Byurokratik to'siqlarni bartaraf etish;

4.Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish;

5.Samarali ichki nazorat tizimi;

6.Samarali ijtimoiy himoya;

7.Davlat xizmatlari ko'rsatishni raqamlashtirish;

8.Korrupsiyaga qarshi ekspertiza.

2017 yil 3 yanvarda "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonunida keltirilgan bir qator masalalar yuzasidan Islom Karimov nomidagi toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tarmoq markazi tomonidan olib borilayotgan ma'rifiy tadbirlar bu jarayonga immunitetni hosil qilishda va ularni jamiyatga tadbig'ini oshirish maqsadida olib borilayotgan islohotlar sirasiga kiritilishi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Xulosa qilib aytganda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda mazkur turdagi jinoyatlarni oldini olish borasida mamlakatimizda kerakli chora-tadbirlarni amalga oshirish lozimligini ko'rsatmoqda. Olib borilayotgan islohotlarni amaliy hayotga tatbiq etish maqsadida jamiyatni Korrupsiyaga qarshi kurashga chorlash hamda ijtimoiy-siyosiy davlat ravnaqi yo'lida birgalikda xizmat qilish barchaning fuqarolik burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 1-son, 2-modda.
2. O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 7 iyuldagi "Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003 yil 31 oktyabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida"gi Qonuni // O'RQ-158-son. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008 y., 28-son, 260-modda.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 5 martdagi "Mansabdor shaxslarning xorijiy mamlakatlarga chiqish tartibini takomillashtirish choralari to'g'risida"gi PQ-2142-son Qarori. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 y., 10-son, 103-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-

tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-son Farmoni // (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.05.2019 y., 06/19/5729/3199-son, 20.07.2019 y., 06/19/5769/3450-son).

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6257-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.07.2021 y., 06/21/6257/0645-son

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5177-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.07.2021 y., 07/21/5177/0644-son.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi yildagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6013-sonli Farmoni // Elektron manba: <https://lex.uz/pdfs/4875784>;

